

INGLIZ TILI LEKSIK TIZIMINING SEMANTIK TAHLILI VA O‘QITISH JARAYONIDAGI QIYINCHILIKLAR

F.Boysariyeva. Katta o‘qituvchi. O‘zDJTU.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tili leksik tizimining asosiy semantik xususiyatlari, leksik birliklarning ko‘pma’nolilik, sinonimiya, antonimiya, omonimiya kabi hodisalari hamda leksik-semantik maydonlar doirasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilinadi. Shuningdek, ingliz tilidagi murakkab semantik munosabatlarning o‘qitish jarayonida uchraydigan asosiy qiyinchiliklarga sabab bo‘lishi, talabalarning lug‘at boyligini rivojlantirishda samarali metodlar va interaktiv yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Maqola ingliz tili o‘qituvchilari uchun leksik semantika masalalarini o‘rgatishda metodik tavsiyalar ham beradi.

Kalit so‘zlar: *leksik tizim, semantika, polisemiya, omonimiya, sinonimiya, antonimiya, leksik-semantik maydon, leksik o‘zlashtirish, vocabulary teaching, semantics in ESL.*

Ingliz tili dunyodagi eng boy leksik tizimlardan biri bo‘lib, bir necha ming yillar davomida german, fransuz, lotin va boshqa tillar ta’siri ostida shakllangan. Ingliz leksik tizimi ochiq tizim bo‘lib, unda yangi so‘zlar muntazam ravishda paydo bo‘lib boradi. Global kommunikatsiyaning kuchayishi, texnologik taraqqiyot va madaniy almashinuv leksik tarkibning yanada kengayishiga sabab bo‘lmoqda.

Leksik tizimni o‘rganishda asosiy e’tibor so‘zlarning “formal”, “semantic” va “funktional” xususiyatlariga qaratiladi. Semantika esa so‘z ma’nosining strukturasi, ma’no o‘zgarishi mexanizmlari va leksik birliklar o‘rtasidagi semantik munosabatlarni o‘rganadi.

Leksik semantikaning asosiy hodisalari. Polisemiya (ko‘pma’nolilik).

Polisemiya ingliz tilining eng muhim xususiyatlaridan biridir. Ko‘plab so‘zlar bir nechta ma’noga ega:

“**run**” - yugurmoq, boshqarmoq, ishlamoq, o‘tmoq kabi 30 dan ortiq ma’noga ega. Bu esa talabalarda ma’no chalkashligiga sabab bo‘lishi mumkin, ayniqsa kontekst yetarli bo‘lmaganda.

Omonimiya. Omonim so‘zlar shaklan bir xil, ammo ma’nosi mutlaqo farqli bo‘ladi:

“**bank**” - daryo sohili , bank muassasasi manolarida kelishi mumkin.

Omonimiyani o‘rgatishda kontekstual faraz qilish qobiliyatini rivojlantirish zarur. Bu esa talabalarga kontekstni to‘g‘ri tushunish va matnni to‘g‘ri tarjima qila olish imkonini beradi.

Sinonimiya. Ingliz tilida sinonimiya juda rivojlangan bo‘lib, nozik semantik farqlar mavjud, quyidagi so‘zlarni misol tariqasida keltirish maqsadga muvofiqdir:

“**big / large / huge**”

Ularning stilistik ranglari ham farqlanadi. Talabalar aynan shu nozik farqlarni tushunishda qiynaladi.

*There is a **big** tree in my garden.*

*I have a **large** bedroom.*

*I have a **huge** amount of money*

Bu misollar shuni ko‘rsatadiki “*correct useage of vocabulariy*” muhim omil xisoblanadi

Antonimiya. Antonymic juftliklar (good–bad, long–short) semantik o‘z o‘rniga ega. Ammo ingliz tilida “gradable” va “non-gradable” antonimlar mavjudligi o‘qitishda murakkablik tug‘diradi.

Masalan: “alive–dead” (non-gradable), “hot–cold” (gradable).

Leksik-semantik maydonlar. So‘zlar o‘zaro ma’no yaqinligi asosida guruhlariga birlashadi:

- ranglar, harakat fe’llari, hissiyotlar, texnologiya terminlari va boshqalar.

Leksik maydon bilan ishlash ularni tizimli o‘rganishga yordam beradi.

Ingliz tili leksikasidagi semantik o'zgarishlar; Leksik ma'no vaqt o'tishi bilan o'zgarishi tabiiy hol.

Masalan: "mouse" - bir vaqtlar faqat hayvon ma'nosida bo'lgan, hozir texnika terminida ham qo'llanadi.

Bu jarayonlar semantik kengayish, torayish, metafora va metonimiya orqali sodir bo'ladi.

Leksik semantika o'qitish jarayonidagi qiyinchiliklar; Ko'pma'nolilikni anglashdagi muammolar.

Talabalar bir so'zning barcha ma'nolarini yodlashga urinadi, holbuki ma'noni kontekst orqali aniqlash ko'nikmasi ustuvor bo'lishi kerak. O'qitishda kontekstual misollar, gap tahlili va real holatlar yordam beradi.

Sinonimlar o'rtasidagi nozik farqlar. Sinonimlarning semantik, stilistik va pragmatik farqlari talabalarda chalkashlik uyg'otadi. Bu ayniqsa "academic vocabulary" o'rgatilganda yaqqol ko'rinadi.

Leksik kollokatsiyalarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar. Ingliz tilida ko'plab so'zlar mustahkam juftliklar bilan ishlatiladi:

"make a decision", "take a risk", "heavy rain"

Ularning tarjimasini so'zma-so'z bo'lmaydi, va bu o'zlashtirishni qiyinlashtiradi.

Idiomatik birliklar. Idiomlar ko'pincha metaforik bo'lib, to'g'ri tarjima qilinmaydi:

-kick the bucket (o'lmoq)

Madaniy bilim yetishmasligi talabalarda noto'g'ri tushunchalar paydo qiladi. Shu sababdan xar qanday xorijiy til o'rganish niyyatida yurgan talaba, faqat grammatik qoidalarni o'rganib qolmay, balki, tili o'rganilayotgan mamlakatning ijtimoiy madaniy xayoti, urf odatlari va stereotiplarini xam o'rganib borishi, shu tilni mukammal egallashga yaxshigina poydevor bo'ladi.

Xulosa. Ingliz tili leksik tizimi murakkab semantik struktura va ko'plab ma'no munosabatlariga asoslangan bo'lib, uni o'rgatishda polisemiya, omonimiya,

sinonimiya, idiomatik birliklar va kollokatsiyalar bilan bog‘liq qiyinchiliklar ko‘p uchraydi. Ushbu murakkabliklar o‘qitish jarayonida zamonaviy lingvistik yondashuvlar, kontekstual metodlar, korpus tahlili, leksik maydonlar va texnologik vositalar orqali samarali yengib o‘tilishi mumkin. Leksik semantika chuqur va tizimli o‘rgatilganda talabalar ingliz tilida erkin fikrlay oladigan, aniq semantik farqlarni tushunadigan va yuqori nutq madaniyatiga ega bo‘lgan foydalanuvchilarga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Cruse, D. A. “Lexical Semantics”. Cambridge University Press, 1986.
2. Jackson, H., & Amvela, E. “Words, Meaning and Vocabulary”. Continuum, 2000.
3. Murphy, M. Lynne. Semantic Relations and the Lexicon. Cambridge University Press, 2003.
4. Nation, I. S. P. Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge University Press, 2013.
5. Thornbury, S. “How to Teach Vocabulary”. Pearson Longman, 2002.
6. Aitchison, J. “Words in the Mind: An Introduction to the Mental Lexicon”. Wiley-Blackwell, 2012.
7. COCA Corpus (Corpus of Contemporary American English).
8. BNC (British National Corpus) Linguistic Database.